



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



## KONSTITUTSIYA - ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

**Baratova Baxora Baxromovna**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
"Amaliy psixologiya" yo'nalishi 3-kurs 304-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada konstitutsiyaning davlat va jamiyatimizdagi o'rni xalqning davlatning rivojlanishi va taraqqiyoti uchun muhim nizom ekanligi inson huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini, erkinligini va farovonligini taminlashi hamda gender tenglik huquqlari, xotin-qizlarning ta'lim olishi, jamiyatda ham oilada ham o'z o'rniga ega bo'lishi uchun yaratilayotgan sharoitlar, imkoniyati cheklangan va nogironligi bor shaxslarga berilgan imkoniyatlar va insonlarda huquqiy ongni shakllantirish ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tahlil etilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri va undagi demokratik tamoyillar erkin va farovon hayotning kafolati sifatida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Konstitutsiya, demokratiya, Respublika, huquqiy ong, gendertenglik, davlat, erkinlik, farovonlik, xalq, ijtimoiy adolat, imkoniyat va ta'lim.*

*В данной статье раскрывается роль Конституции в жизни государства и общества, её значение как важнейшего правового основания для развития и прогресса народа. Также анализируются демократические принципы, направленные на обеспечение прав человека, его чести, достоинства, свободы и благополучия. Освещаются вопросы гендерного равенства, создание условий для получения образования женщинами, укрепление их роли как в обществе, так и в семье. Кроме того, рассматриваются предоставляемые возможности лицам с ограниченными возможностями и инвалидностью, а также процессы формирования правового сознания у населения, основанные на научно-теоретических подходах. Новая редакция Конституции Республики Узбекистан и закреплённые в ней демократические принципы представлены как гарантия свободной и благополучной жизни.*

**Ключевые слова:** *Конституция, демократия, Республика, правовое сознание, гендерное равенство, государство, свобода, благополучие, народ, социальная справедливость, возможности, образование.*

*This article highlights the role of the Constitution in the life of the state and society, emphasizing its importance as a fundamental legal basis for the development and progress of the nation. It also analyzes democratic principles aimed at ensuring human rights, dignity, freedom, and well-being. Issues of gender equality, the creation of conditions for women's education, and the strengthening of their role both in society and within the family are discussed. In addition, the opportunities provided for persons with disabilities and individuals with limited abilities, as well as the processes of forming legal awareness among the population based on scientific and theoretical approaches, are examined. The*



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



*new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and its democratic principles are presented as a guarantee of a free and prosperous life.*

**Keywords:** *Constitution, democracy, Republic, legal awareness, gender equality, state, freedom, well-being, people, social justice, opportunity, education.*

**Kirish:** Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi yangi taraqqiyot va rivojlanish yo'lida dadil qadam tashlamoqda. Barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohatlar, avvalambor, xalq farovonligi, fuqorolarning munosib turmush tarzi, yoshlarimizning yetuk ta'limi uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan. Mamlakatimiz asosiy qonunida insonning hayoti, erkinligi, sha'ni qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyada belgilangan qonunlarning hayotimizda qanchalik darajada amalda bo'lishi fuqorolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Inson o'z huquqini va majburiyatlarini yaxshi anglasa, jamiyatda shunchalik barqarorlik, mas'uliyat va faollik ortadi.

**Huquqiy ong-bu shaxsning:** huquqiy bilimlari, adolat haqidagi tasavvurlari, qonunga nisbatan munosabati, qonuniy xulq-atvorni tanlash motivlari kabi psixologik jarayonlar majmuasidir. Huquq va psixologiya inson ongini shakllantiruvchi ikki muhim omil. Huquq inson xulq-atvorini tartibga soladi. Psixologiya esa insonni bu normalarni tushunishi va qabul qilishiga ta'sir qiladi. Shaxs qonunni faqatgina bilish bilan cheklanmasligi kerak. Ularni ongli tarzda anglashi, qabul qilishi, rioya qilishi va o'z qadriyatiga aylantirishi zarurdir.

**Huquqiy ongni shakllantirishdagi psixologik omillar quyidagicha:**

**1. Oilaviy tarbiya:** bolaga jamiyatdagi mavjud qonun-qoidalarni, adolat, tartib-intizom, mas'uliyatni tushuntirish. Nafaqat tushuntirish balki, kattalar o'rnak bo'lishi muhim.

**2. Ijtimoiy muhit va streotiplar:** Atrofdagi odamlarda qonunga nisbatan hurmat bo'lsa, bolada ham bu norma shakllanadi. Ammo korrupsiya ko'p bo'lsa – "qonunda ham teng emas" degan noto'g'ri apersepsiya shakllanadi.

**3. Psixologik barqarorlik:** Stress, qo'rquv, tashvish, apatiya, agressiya, affekt holatida bo'lgan shaxs huquqiy me'yorlarni tog'ri qabul qila olmaydi. Psixologiyadagi yondashuvlarga ko'ra, xulq-atvorni tartibga solish uchun avvalo emotsional holat barqaror bo'lishi kerak.

Yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tqazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. Yangi tahrirdagi konsitutsiya 6 bo'lim, 27 bob, 155 ta moddadan tashkil topgan. So'ngi yillarda O'zbekistonda gender tenglikni taminlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat va jamiyat ishlarida ayollar va erkaklarning teng huquqliligi konstitutsiyaning 58-moddasida belgilab qo'yilgan. Ayollarni kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi, ijtimoiy va huquqiy barcha sharoitlarning mavjudligi kafolatlanadi. Nafaqat gender tenglik balki, xotin-qizlarning ta'lim olish huquqi, stipendiya, imtiyozlar, grantlar kengaymoqda. Ushbu imkoniyatlardan foydalanolgan ko'plab o'zbek qizlari ilm-



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



fan, texnologiya, sport va boshqa ko'plab sohalarda jahon miqyosida ulkan yutuqlarga erishmoqdalar. Bu esa gender tenglik huquqining yuksak natijasidir. Har tomonlama rivojlangan, o'zligini anglagan ayollargina jamiyatda ham oilada ham o'z o'rniga ega bo'ladi. Xalqimiz uchun yetuk farzandlarni tarbiyalaydi. Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarga ham juda katta imkoniyatlar qonuniy tarzda berilgan. Konsitutsiyamizning 57-moddasida "Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar davlat himoyasida ekanligi aniq ko'rsatib o'tilgan. 50-moddasida esa: "Ta'lim olishning barcha uchun teng ekanligi, imkoniyati cheklanganlar uchun inklyuzif ta'limni joriy qilinganini ko'rishimiz mumkin. 115-modda (konsitutsiyaviy normalarga ko'ra) davlat organlari jumladan hukumat-nogironligi bo'lganlarga ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish, ularning hayot sifatini yaxshilash majburiyatiga e'tibor qaratishi zarurdir.

**Xulosa** qilib aytganda konstitutsiya butun aholining erkin va farovon hayoti uchun poydevor yaratadi. Undagi qonun va qoidalar xalqimizning farovon va tinch hayotini taminlaydi. Konsitutsiyamizdagi qonunlar nafaqat hujjatda balki, hayotda ham amal qilishi uchun insonlarda huquqiy ongni shakillantirish zarur. Buning uchun esa insonlarda huquqiy va psixologik bilimlarni o'rganishga qiziqishni uyg'otishimiz kerak. Ushbu bilimlarni egallashlari uchun birinchi bo'lib yoshlarimizning ta'limiga etibor qaratishimiz. Ularda huquqiy savodxonlikni oshirishimiz. O'zlarini anglashga va kelajakda yetuk shaxs va muaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur imkoniyatlar bo'lishini taminlash muhim omillardir. Gender tenglikni to'g'ri tushunish ayollarning ham jamiyatimizda o'rni borligini anglash zarur. Jamiyatimizdagi adolatli qonunlar va teng imkoniyatlar borligi uchun ham farovon hayot yaratiladi. Yurtimizda bunday imkoniyatlar borligining asosiy poydevori **"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir."**

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil tahriri)
2. Xalilova D., Maxmudova N. "Huquqiy ong va huquqiy madaniyat psixologiyasi." Toshkent, 2021.
3. Qodirov G., Ernazarova M. "Ayollar huquqlari va gender adolat." Toshkent: 2022.
4. Mirziyoyev SH.M. "Yangi O'zbekiston Strategiyasi". Toshkent: O'zbekiston, 2021
5. Nemov R.S. Psixologiya (huquqiy ong va xulq-atvor psixologiyasi boblari)-Moskva, 2019.
6. Rojers K. "Inson markazli yondashuv".- SHaxsning o'zini anglash va o'z huquqini bilish psixologiyasi
7. Abdullayeva Z. "O'zbekistonda gender siyosati va ayollar faolligi", Oliy Majlis Materiallari, 2021.
8. Tursunov M. "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining psixologik jihatlari", Psixologiya jurnali, 2022.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



9.Petroviski A.V.,Obuxova L.F. “Umumiy psixologiya”(ong,idrok,xulq motivlari nazariyalari)-Moskva 2019.

10.G'ulomov S.”Inson huquqlari va demokratik davlat tamoyillari”.-Toshkent: Adolat,2021.

